

FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

48 111

113,0 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

46 277

112,0 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yilda)


8 765

121,7 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-noyabr oyida)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

6


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,2** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chovachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish
■ O'rmon xo'jaligi
■ Baliqchilik xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonalarini
umumiyligi o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan **11,1** foizga
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 9,5 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,1 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili-(o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 110,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,1 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 109,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 104,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 104,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,6 foizga oshdi**



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




9,5 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




18,7 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




5,4 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **1,7 barobarga oshdi**




Xususiy korxonalar



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

10



- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

969



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

46



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

65



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



160 yashash
bo'yicha xizmatlar



2 419
Oziq-ovqat mahsulotlari
va ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar


2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,1 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 116,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,8 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 122,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,2 %) o'sishidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


12



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

13




Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


14



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 foizga oshdi




Kichik tadbirdorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




10,5
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar



14,1
foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



7,7
foizga oshdi



Xususiy korxonalar




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 6,0 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 918 taga yoki 118,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5,7 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 823 taga yoki 116,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 271 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 161 taga yoki 88,8 % ga kamaygan.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 23,3 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,1 mingtaga yoki 121,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 22,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 mingtaga yoki 120,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 5,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 mingtaga yoki 136,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 536 tani tashkil etib, ularidan 524 tasi yoki 97,8 %ni faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 74 taga yoki 116,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatimizda 81 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



**Farg'ona viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**

(2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


18

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Belorussiya Respublikasi	7	4	3
Ozarbayjon Respublikasi	8	4	4
Qirg'iziston Respublikasi	38	29	9
Qozog'iston Respublikasi	16	14	2
Rossiya Federatsiyasi	122	93	29
Tojikiston Respublikasi	9	6	3
Turkmaniston Respublikasi	1	1	
Ukraina Respublikasi	3	2	1
Armaniston Respublikasi	4	3	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

19



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	196	272	406	451	524
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4	8	25	27	26
Sanoat	139	181	238	256	283
Qurilish	4	7	10	15	26
Savdo	17	36	72	80	109
Tashish va saqlash	6	6	12	13	14
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8	11	14	15	15
Axborot va aloqa	3	3	4	4	3
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	7	8	9	9
Boshqa turlar	10	13	23	32	39

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

20



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

21

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Farg'ona viloyati	524	336	188
Oltiariq tumani	22	15	7
Qo'shtepa tumani	9	8	1
Bag'dod tumani	16	12	4
Buvayda tumani	12	8	4
Beshariq tumani	10	4	6
Quva tumani	23	14	9
Uchko'prik tumani	21	13	8
Rishton tumani	11	8	3
So'x tumani	7	6	1
Toshloq tumani	19	12	7
O'zbekiston tumani	26	22	4
Farg'ona tumani	24	14	10
Dang'ara tumani	15	8	7
Furqat tumani	7	5	2
Yozyovon tumani	5	1	4
Farg'ona shahar	171	103	68
Qo'qon shahar	69	40	29
Quvasoy shahar	31	24	7
Marg'ilon shahar	26	19	7

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

22



2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (16,4 %), Qo'qon shahar (11,9 %), Marg'ilon shahar (9,3 %), Uchko'prik tumani (5,1 %), Dang'ara tumani (4,9 %), Oltiariq tumani (4,9 %), Quva tumani (4,8 %), O'zbekiston tumani (4,8 %), Buvayda tumani (4,7 %), Toshloq tumani (4,4 %), Farg'ona tumani (4,0 %), Bag'dod tumani (3,8 %), Rishton tumani (3,7 %), Beshariq tumani (3,5 %), Quvasoy shahar (3,4 %), Qo'shtepa tumani (3,2 %), Furqat tumani (2,6 %), So'x tumani (2,3 %), Yozyovon tumani (2,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)


2021- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (13,8 %), Qo'qon shahar (10,5 %), Marg'ilon shahar (7,3 %), Quva tumani (5,4 %), Oltiariq tumani (5,2 %), Uchko'prik tumani (4,6 %), Bag'dod tumani (5,0 %), Toshloq tumani (5,3 %), Buvayda tumani (5,3 %), O'zbekiston tumani (5,0 %), Dang'ara tumani (4,7 %), Rishton tumani (4,4 %), Farg'ona tumani (4,3 %), Beshariq tumani (4,3 %), Qo'shtepa tumani (3,3 %), Quvasoy shahar (3,6 %), Furqat tumani (3,0 %), Yozyovon tumani (2,8 %), So'x tumani (2,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

23



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy
korxonalarga taqsimlanishi**

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)

24



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'naliishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish etib belgilangan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'ona viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:73 244-65-76**